

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI**

SAFOYEVA SADOQAT MUSOYEVNA

**IJTIMOIIY TARMOQLARDA FUQAROLIK MUNOSABATLARNI
HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

UDK: 343.535(043.5)(575.1)

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации
Content of the doctoral (DSc) dissertation abstract

| | |
|---|----|
| Safoyeva Sadoqat Musoyevna Ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolik munosabatlarni huquqiy tartibga solish | 3 |
| Сафоева Садоқат Мусоевна Правовое регулирование гражданских отношений в социальных сетях | 31 |
| Safoyeva Sadoqat Musoyevna Legal regulation of civil relations in social networks | 61 |
| E'lon qilingan ishlar ro'uxati Список опубликованных работ List of published works | 66 |

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI**

SAFOYEVA SADOQAT MUSOYEVNA

**IJTIMOIIY TARMOQLARDA FUQAROLIK MUNOSABATLARNI
HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.DSc/Yu202 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sudyalar oliy maktabida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.sudyalaroliymaktabi.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Gulyamov Said Saidahrarovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sindorov Komil Oydinovich
yuridik fanlar doktori, professor

Topildiyev Voxidjon Raximjonovich
yuridik fanlar doktori, professor

Yakubov Axtam Nusratillovich
yuridik fanlar doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSs.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 26-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail:info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1364-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar A.Temur ko'chasi 13. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 11-mart kuni tarqatildi.
(2025-yil 11-martdagi 71-raqamli reestr bayonnomasi).

I.R.Rustambekov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

D.Yu.Xabibullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

B.K.Xodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi (DSc) annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat hayotiga va mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri juda yuqori sur'atlarda o'sgan, jumladan, statistik ma'lumotlar 2023-yilda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni rekord darajaga, ya'ni 4,9 milliard kishiga yetganligini ko'rsatmoqda.¹ Bunda, ijtimoiy tarmoqlar iqtisodiyoti 2022-yildagi 193,52 milliard dollardan 2023-yilda 231,1 milliard dollargacha ko'tarilgan va yillik o'sish sur'ati 19,4 foizni tashkil etmoqda.² Qamrov jihatdan ijtimoiy tarmoqlar kishilik jamiyatiga individual darajada tobora chuqurroq kirib borayotgan bo'lsa-da, ushbu makonni fuqarolik-huquqiy tartibga solishda aniq, izchil, yagona bo'lgan yondashuvlardan foydalanilmayotganligi, zamon ehtiyoji va talablari asosida majburiyat huquqiy munosabatlari, shaxsiy hamda nomulkiy huquqlar yetarli darajada ta'minlanmayotganligi, shuningdek to'rtinchi sanoat inqilobi davrida amaldagi raqamli qonunchilikni inson huquqlari va manfaatlarini nuqtai nazaridan takomillashtirish ahamiyatining ortib borayotganligi ushbu mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

Jahonda ijtimoiy tarmoqlardagi munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishda samarali huquqiy tizimni joriy etish, xususan, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning aniq va shaffof qoidalarini belgilash, foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni mustahkamlash, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatiladigan ma'lumotlarning mavjudligi va ishonchliligini ta'minlash yuzasidan ilmiy tahlillar o'tkazilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolik munosabatlarni huquqiy tartibga solish masalalarining qonunchilikdagi ahamiyatini oshirish, to'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida inson boshqaruvi omilini inkor etadigan algoritmlar, sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish kabi raqamli makonning texnologik jihatlari rivojlanishi sababli paydo bo'layotgan yangi tartibga solish vositalarining fuqarolik-huquqiy maqomini belgilash, normativ-huquqiy bazani tizimlashtirish va takomillashtirish, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, qonunchilik hujjatlari hamda huquqni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq muammolarning ilmiy yechimini berish dolzarblik kasb etmoqda.

Respublikamizda fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik bazasini O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi bilan bir qatorda o'ndan ortiq qonun hujjatlar tashkil etib, ularni xalqaro standartlar va fuqarolik-huquqiy munosabatlarning jadal rivojlanayotgan zamonaviy talablariga muvofiqlashtirish ishlariga alohida e'tibor berilib, qator maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 31 milliondan oshadi, ularining asosiy qismi, ya'ni 29,5 millioni tarmoqqa mobil telefonlar orqali kiradi. Mobil aloqa tarmog'ining qamrovi respublika hududining

¹ Wong, B., & Botorff, C. (2023). Top Social Media Statistics And Trends Of 2023. <https://www.forbes.com/advisor/business/social-media-statistics/>

² Social Media Global Market Report 2023. (April 2023). <https://www.reportlinker.com/market-report/E-Services/133007/Social-Network>

Код поля изменен

Код поля изменен

99 foizini, keng polosali mobil internet esa 98 foizini tashkil etadi¹. 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida bir qator fuqarolik qonunchiligini rivojlantirishga bevosita aloqador bo'lgan yo'nalishlar – iqtisodiyotni liberallashtirish, iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish kabi maqsad va vazifalar belgilangan². Mavjud normativ-huquqiy hujjatlarni xalqaro norma va tamoyillarga moslashtirish, uning muvozanatli va moslashuvchan me'yoriy-huquqiy baza sifatidagi o'rnini mustahkamlash hamda innovatsion huquqiy yechimlarni taklif etish zarurati tadqiqotda ko'rib chiqiladigan asosiy masalalardan sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1995, 1996), "Axborotlashtirish to'g'risida" (2003), "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi (2002), "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi (1997), "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi (2019), "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi" (1996), "Reklama to'g'risida"gi (2022), "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi (2006) qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi hamda mavzuga oid boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan vazifalarning amalga oshirilishida ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolik munosabatlarni huquqiy tartibga solishning nazariy-huquqiy ta'minlash muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va universitetlarida, jumladan, Oksford universiteti (Buyuk Britaniya), Kembrij universiteti (Buyuk Britaniya), Kornel universiteti (AQSH), Masaryk universiteti (Chexiya), Illinoys universiteti (AQSH), Yel universiteti (AQSH), Penghu milliy fan va texnologiyalar universiteti (Tayvan), Aleksandr fon Gumboldt Internet va jamiyat instituti (Germaniya), GLA universiteti (Hindiston) kabilarda olib borilmoqda.

Xususan, Oksford universitetida (Oxford University) ijtimoiy tarmoqlar doirasida "unutilish huquqi" (The right to be forgotten)ning ahamiyatini asoslanib, onlayn muhitni tartibga solish va xavfsizligini ta'minlash sohasida qator ilmiy

¹ Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 2022 yil 14-dekabrda bo'lib o'tgan "Hukumat soati"dagi O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vaziri hisoboti. <https://mitc.uz/uz/news/view/4248>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

³ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://www.ox.ac.uk/>, <https://www.cam.ac.uk/>, <https://www.cornell.edu/>, <https://www.muni.cz/>, <https://illinois.edu/>, <https://www.yale.edu/>, <https://www.npu.edu.tw/>, <https://www.hiig.de/>, <https://www.gla.ac.in/> va boshqa manbalar asosida amalga oshirilgan.

Код поля изменен

Код поля изменен

natijalarga erishilgan; Kembridj universiteti (Cambridge University) tadqiqotlarida raqamli davrda sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilish foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari xavfsizligi samaradorligini oshirish va ijtimoiy tarmoqlardagi materiallarga mualliflik huquqini ta'minlashga xizmat qilishi asoslangan; Kornel universiteti (Cornell University)da ijtimoiy tarmoq platformalarini tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish davomida platformalarni uyg'un rivojlantirish sohasida muhim ilmiy natijalarga erishilgan; shuningdek, Illinoys universiteti (University of Illinois)da ijtimoiy tarmoqlardagi munosabatlarning yangi shakllarini ilmiy tadqiq etish natijasida adolatli va muvozanatli raqamli huquqiy tizimni yaratishda ilmiy natijalarga erishilgan; Penxu milliy fan va texnologiyalar universiteti (National Pengu University of Science and Technology)dag tadqiqotlarda ijtimoiy tarmoqlar faoliyatini samarali moderatsiya qilish orqali inklyuziv va shaffof onlayn hamjamiyatlarni shakllantirish zarurligini asoslab berilgan. Yuqoridagilar bilan bir qatorda, Aleksandr fon Gumboldt nomidagi Internet va jamiyat instituti (Alexander von Humboldt Institute for Internet and Society) da ma'lumotlarni himoya qilish, raqamli identifikatorlarni yaratish va shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash kabi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda.

Jahon miqyosida ijtimoiy tarmoqlardagi fuqarolik munosabatlarini huquqiy tartibga solishning bir qator ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, internet orqali ta'qib qilish va kiberbulling muammolari, ijtimoiy tarmoqlardagi algoritmlarning foydalanuvchilar qarorlariga ta'siri, platforma qarorlarini qabul qilish jarayonlari hamda ularning shaffofligi masalalari chuqur o'rganilmoqda.

Ijtimoiy tarmoq platformalarining ichki siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, xalqaro tartibga solish bo'yicha hamkorlik salohiyatini oshirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Transchegaraviy yurisdiksiya masalalari, milliy va xalqaro qonunchilik hamda ijtimoiy platforma qoidalari o'rtasidagi ziddiyatlarni hal etish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati paydo bo'lmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolik munosabatlarni huquqiy tartibga solish masalalari tahlili, ularning mohiyati va xususiyatlari, ijtimoiy tarmoqlardagi majburiyat huquqiy munosabatlar, shaxsiy nomulkiy huquqlar hamda fuqarolik munosabatlarini huquqiy tartibga solish istiqbollari tadqiq etilmagan, shuningdek, bu sohadagi xalqaro standartlar va xorijiy davlatlarning tajribalari mamlakatimizda mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Mazkur mavzuning ayrim jihatlarini milliy olimlarimiz X.R.Raxmonqulov, I.Zokirov, O.Ok'yulov, S.Gulyamov, I.Rustambekov, I.Nasriev, V.Ergashev, N.Imomov, Q.M.Mehmonov, I.Yakubova, D.Egamova, A.Ismanjanov, B.Hamroqulov, S.Bozarov, A.Yakubov, J.Yuldashev, B.Toshev, R.X.Xursanov, T.Umarov, Q.Sadullaev, S.Mamanazarov, A.U.Norqulovlar tomonidan ilmiy ishlarida O'zbekiston Respublikasida mulk huquqi, ashyoviy huquqlar, shaxsiy nomulkiy huquqlar, intellektual mulk obyektlarining huquqiy maqomi va muhofazasi, sun'iy intellektning fuqarolik huquqiy munosabatlarga ta'siri,

kibermakondagi huquqiy tartibga solish vositalari, internetdagi fuqarolik-huquqiy munosabatlar, ma'naviy zararni qoplash bilan bog'liq masalalar o muayyan darajada o'rganilgan¹. So'nggi yillarda mamlakatimiz olimlarining tadqiqotlarida ham mavzu doirasida ayrim tadqiqotlar olib borilayotganligini kuzatish mumkin. Xususan Sh.Xo'jaev, L.Rakhimova va L.Burhanovalarning ishlari shular shumlasidandir².

MDH davlatlarida E.Krasavina, E.Balakina, E.Malyutina, A.Axmadullina, O.Burmistrova, M.Chugunova, G.Yarmolovich va boshqa olimlar bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolik munosabatlarini huquqiy tartibga solishni tadqiq etgan olimlar orasida aksariyati global miqyosda ijtimoiy tarmoqlar yuzaga kelgan (ishga tushirilgan), rivojlangan davlatlarning mualliflari yetakchi o'rin egallaydi. Xususan, M.Peguera, N.Suzor, J.Kosseff, T.Gillespie, E.Andrews, D.Boyd, S.Bradshaw, J.Kosseff, C.Kuner, S.Lewandowsky, M.MacCarthy D.McGoldrick, H.Mildebrath, M.Rahman, S.Roberts kabi olimlarning ishlari mazkur tadqiqot ishi doirasida o'rganib chiqilgan³.

Dissertasiya mavzusining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolik munosabatlarni huquqiy tartibga solish" mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi fuqarolik qonunchiligining ijtimoiy tarmoqlarni tartibga solishga oid ta'sirini tizimli tahlil qilish va ijtimoiy tarmoqlardagi munosabatlarni fuqarolik huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

ijtimoiy tarmoqlarni fuqarolik huquqiy tartibga solishning mohiyati va xususiyatlari, shuningdek, bu boradagi asosiy yondashuvlarni tahlil qilish;

ijtimoiy tarmoqlarni tartibga solishning zamonaviy muammolarini tahlil qilish va amaliyotlarni o'rganish;

ijtimoiy tarmoqlarni tartibga solishning huquqiy tabiatini munosabat obyekti, subyekti va mazmuni kesimida tadqiq etish;

ijtimoiy tarmoqlarda majburiyat huquqiy munosabatlarni tartibga solishning umumiy tavsifi va xususiyatlarini o'rganish;

O'zbekiston milliy qonunchiligi hamda xorijiy davlatlarning qonun hujjatlari, xalqaro va mintaqaviy qonunchilikda ijtimoiy tarmoqlarni huquqiy tartibga solish yuzasidan masalalarni umumiy tavsiflash;

ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy nomulkiy huquqlarning xususiyatlarini, xususan, sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sining huquqiy holati, uni himoya qilish hamda ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqini himoya qilish muammolarini tahlil qilish, shu jumladan bu borada fuqarolik sudlari amaliyotini tadqiq etish;

ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda yuzaga keladigan muammolar, bu borada kibermakon fuqarolik-huquqiy munosabatlarini tartibga solishda yurisdiksiyani aniqlash masalalarini o'rganish;

¹ Mazkur olimlarning ilmiy ishlari foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

² Mazkur olimlarning ilmiy ishlari foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

³ Mazkur olimlarning ilmiy ishlari foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

ijtimoiy tarmoqlarda iste'molchilarni huquqiy himoya qilish, kontentni moderatsiya qilish, sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish, kabi masalalarni fuqaroviy-huquqiy jihatdan tadqiq etish;

ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish istiqbollari, xususan, sohaviy tartibga solish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, foydalanuvchilar xabardorligini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolik munosabatlarni huquqiy tartibga solish bilan bog'liq huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolik munosabatlarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy, amaliy va nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalardan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida ijtimoiy tarmoqlarni huquqiy tartibga solish muammosini har tomonlama o'rganish va tahlil qilishda tarixiy va tizimli usul, analiz va sintez usuli, qiyosiy-huquqiy va tahlil qilish usuli, normativ-huquqiy va amaliy tahlil usuli, umumlashtirish, mantiqiylik hamda ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga egaligi asoslantirilgan;

fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirokchilar tengligini ta'minlash, davlatning Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishi asoslantirilgan;

mulkdor va (yoki) operator O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsga doir ma'lumotlariga axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ishlov berishda, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'ida ishlov berishda ularning jisman O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan texnik vositalarda hamda belgilangan tartibda Shaxsga doir ma'lumotlar bazalarining davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan shaxsga doir ma'lumotlar bazalarida yig'ilishini, tizimlashtirilishini va saqlanishini ta'minlashi shartligi asoslantirilgan;

zamonaviy voqelik, raqamli muhitda ijtimoiy tarmoqlardagi munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish, milliy qonunchilikni o'zaro unifikatsiya qilish orqali tizimlashtirilgan Axborot kodeksini qabul qilinishi asoslantirilgan;

ijtimoiy tarmoqlarni tartibga solishda O'zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasi aniqlanib, munosabatlarni huquqiy tartib solish hudud bilan belgilanishi, xususan reklamaning aylanish sohasidagi munosabatlarga ishlab chiqarilayotgan yoki realizatsiya qilinayotgan tovarlar haqida tovarlarni ishlab chiqaruvchilarning va (yoki) sotuvchilarning saytlariga yoki ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarga joylashtirilgan Internet jahon axborot tarmog'idagi axborotga, agar ko'rsatilgan ma'lumotlar saytga yoki ijtimoiy tarmoqdagi sahifaga kiruvchilarni realizatsiya qilinayotgan tovarlar, ularning assortimenti, ulardan foydalanish qoidalari va boshqa

xususiyatlar (xossalar) to'g'risida xabardor qilish uchun mo'ljallangan bo'lsa reklama qonunchiligi tatbiq etilmasligi asoslantirilgan;

Internet jahon axborot tarmog'i vositasida tarqatiladigan reklama, reklamaga qo'yiladigan asosiy talablarga, shu jumladan reklama beruvchi va reklama tarqatuvchi bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan taqdirda reklamani tarqatishga yo'l qo'yilmasligi to'g'risidagi talabga muvofiq bo'lishi hamda qonunchilikda Internet jahon axborot tarmog'ining "UZ" domen zonasidagi axborot resurslarida reklamani aylanishiga nisbatan qo'shimcha talablar belgilanishi mumkinligi asoslantirilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ijtimoiy tarmoq platformalarining dinamik va doimiy rivojlanishini hisobga olgan holda ijtimoiy tarmoqlardagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi hujjatlarni ishlab chiqishda regulyatorlarga zarur bo'lgan strategiya, metodologiya va ilg'or tajribalarni qo'llash hamda ushbu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanish asoslantirib berildi;

ijtimoiy tarmoqlardagi kontentni boshqarish uchun shaffof vositalar va protokollarni ishlab chiqish (dezinformatsiya va zararli kontentning oldini olish maqsadida) hamda foydalanuvchilarga o'z ma'lumotlarini ko'proq nazorat qilish imkonini beruvchi huquqiy mexanizm o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash ko'rsatilgan;

ijtimoiy tarmoqlarda "ixtiyoriy-majburiy" tavsiya algoritmlarining shaffof ishlashini talab qiluvchi standartlarni joriy etish hamda foydalanuvchilar uchun kontent qanday tavsiya etilishini tushunishga imkon beruvchi tizimni yaratish bo'yicha tavsiyalar asoslab berilgan;

zamonaviy raqamli muhitni boshqarishda ijtimoiy tarmoqlardagi savodxonlikni oshirish zarurati asoslantirilib, foydalanuvchilarni xavfsiz va mas'uliyatli onlayn xatti-harakatlarga yo'naltirish maqsadida, platformalar ichidagi modullarni integratsiyalash orqali huquqiy mexanizmlarni joriy etish taklif etilgan;

sun'iy intellekt, virtual va to'ldirilgan realikka asoslangan algoritmlar, kontent tanlash va foydalanuvchilarni jalb qilish taktikasi bilan bog'liq axloqiy, huquqiy va ijtimoiy jihatlar tahlil qilingan. Shu asosda ochiq, shaffof, adolatli va foydalanuvchiga yo'naltirilgan huquqiy tizimni joriy etish zaruriyati asoslab berilgan;

ma'lumotlarni saqlashda blokcheyn texnologiyalarining xavfsizlik va shaffoflik xususiyatlari, ijtimoiy platformalarda foydalanuvchilar va kontentni nazorat qilish, texnologik o'zgarishlarning tezkor sur'atlarini hisobga olgan holda moslashuvchan me'yoriy-huquqiy bazani joriy etish asoslab berildi;

global platformalar keltirib chiqaradigan muammolarni hal qilishda eng yaxshi tajribalar almashinuvini rag'batlantirish, davlatlar suvereniteti va milliy qonunlarni hurmat qilgan holda xalqaro shartnomalar va bitimlarda ishtirok etish orqali transcagaraviy tartibga solish bilan bog'liq muammolarni samarali hal qilish mumkinligi asoslantirildi;

ijtimoiy tarmoqlar sohasida tegishli ko'rsatmalar, standartlar va tavsiyalar, milliy va xalqaro tartibga solish yuzasidan izchil qoidalarni o'rnatishga xizmat qiluvchi, ijtimoiy tarmoqlar javobgarligi hamda foydalanuvchilar huquq va

erkinliklarini ta'minlaydigan qonunchilik hujjati – Axborot kodeksini ishlab chiqish asoslab berildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy-ilmiy xulosalar xalqaro ilmiy bazalar hamda boshqa rasmiy manbalardan olingan ishonchli ma'lumotlar asosida shakllantirilgan. Tadqiqot olib borish jarayonida bildirilgan ayrim takliflar amaliyotga joriy etilgan va bu tegishli vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan. Tadqiqot natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda aks etgan ilmiy-nazariy g'oyalar va qonunchilikka bildirilgan takliflardan ijtimoiy tarmoqlar faoliyatini huquqiy tartibga solish sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish, qonun hujjatlarining tegishli noplarni sharhlash, milliy qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish hamda “Fuqarolik huquqi”, “Intellektual mulk huquqi”, “Kiber huquq”, “Xalqaro xususiy huquq” kabi fanlarni o'qitishda va metodologik yondashuvlarni takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan, normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishda, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda hamda yuridik oliy ta'lim muassasalarida xususiy huquq sohasidagi fanlarni o'qitish jarayonida foydalanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolik munosabatlarni huquqiy tartibga solish tizimini takomillashtirish masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga egaligi haqidagi taklifi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida”gi O'RBQ–837-sonli Qonuniga muvofiq yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 31-moddasining uchinchi qismini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2024-yil 7-oktabrdagi 04/2-10-2469-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi shaxsiy nomulkiy huquqlarni himoya qilishning konstitutsiyaviy asoslarining yaratilishiga xizmat qilgan;

ijtimoiy tarmoqlardagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirokchilar tengligini ta'minlash, davlatning Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishi haqidagi taklifi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida”gi O'RBQ–837-sonli Qonuniga muvofiq yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 33-moddasining uchinchi qismida ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2024-yil 7-oktabrdagi 04/2-10-2469-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi

davlat tomonidan Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishining konstitutsiyaviy asoslarini ishlab yaratilishiga xizmat qilgan;

mulkdor va (yoki) operator O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsga doir ma'lumotlariga axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ishlov berishda, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'ida ishlov berishda ularning jisman O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan texnik vositalarda hamda belgilangan tartibda Shaxsga doir ma'lumotlar bazalarining davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan shaxsga doir ma'lumotlar bazalarida yig'ilishini, tizimlashtirilishini va saqlanishini ta'minlashi shartligi haqidagi takliflar O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-666-sonli Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni 27¹-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2024-yil 7-oktabrdagi 04/2-10-2469-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda shaxsga doir ma'lumotlarni yig'sh, tizimlashtirilish va saqlashning huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

zamonaviy voqelik, raqamli muhitda ijtimoiy tarmoqlardagi munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish, milliy qonunchilikni o'zaro unifikatsiya qilish orqali tizimlashtirilgan Axborot kodeksini qabul qilish haqidagi takliflar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni ijrosi yuzasidan Axborot kodeksi loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2024-yil 22-avgustdagi 05/3-5006-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklif raqamli muhitda ijtimoiy tarmoqlardagi munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishda muhim bo'lgan Axborot kodeksi loyihasini tegishli normalar bilan boyitishga xizmat qilgan;

ijtimoiy tarmoqlarni tartibga solishda O'zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasi aniqlanib, munosabatlarni huquqiy tartib solish hudud bilan belgilanishi, xususan reklamaning aylanish sohasidagi munosabatlarga ishlab chiqarilayotgan yoki realizatsiya qilinayotgan tovarlar haqida tovarlarni ishlab chiqaruvchilarning va (yoki) sotuvchilarning saytlariga yoki ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarga joylashtirilgan Internet jahon axborot tarmog'idagi axborotga, agar ko'rsatilgan ma'lumotlar saytga yoki ijtimoiy tarmoqdagi sahifaga kiruvchilarni realizatsiya qilinayotgan tovarlar, ularning assortimenti, ulardan foydalanish qoidalari va boshqa xususiyatlar (xossalar) to'g'risida xabardor qilish uchun mo'ljallangan bo'lsa reklama qonunchiligi tatbiq etilmasligi haqidagi takliflar O'zbekiston Respublikasi "Reklama to'g'risidagi" Qonunining 2-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2024-yil 1-avgustdagi 7-sonli dalolatnomasi). Mazkur takliflar ishlab chiqarilayotgan yoki realizatsiya

qilinayotgan tovarlarni saytlar yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali reklama qilish shartlarini belgilashga xizmat qilgan;

Internet jahon axborot tarmogʻi vositasida tarqatiladigan reklama, reklamaga qoʻyiladigan asosiy talablarga, shu jumladan reklama beruvchi va reklama tarqatuvchi bir vaqtning oʻzida Oʻzbekiston Respublikasining norezidentlari boʻlgan taqdirda reklamani tarqatishga yoʻl qoʻyilmasligi toʻgʻrisidagi talabga muvofiq boʻlishi hamda qonunchilikda Internet jahon axborot tarmogʻining “UZ” domen zonasidagi axborot resurslarida reklamani aylanishiga nisbatan qoʻshimcha talablar belgilanishi mumkinligi haqidagi takliflardan Oʻzbekiston Respublikasi “Reklama toʻgʻrisidagi” Qonunining 31-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qoʻmitasining 2024-yil 1-avgustdagi 7-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif Internet jahon axborot tarmogʻining “UZ” domen zonasidagi axborot resurslarida reklama aylanishining huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

tadqiqot natijalari yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar Toshkent davlat yuridik universitetining bakalavriat taʼlim yoʻnalishi oʻquv rejasiga kiritilgan “Fuqarolik huquqi”, “Axborot huquqi” va “Kiber huquqi” fanlari dasturiga hamda tavsiya etiladigan adabiyotlar roʻyxatiga kiritilishi va ulardan mazkur fanlar doirasida qoʻshimcha manba sifatida foydalanilmoqda (Toshkent davlat yuridik universitetining 2024-yil 31-iyuldagi 11-sonli dalolatnomasi). Mazkur takliflar “Fuqarolik huquqi”, “Axborot huquqi” va “Kiber huquqi” fanlarini oʻqitish sifatini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro va respublika miqyosida oʻtkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va seminarlarda sinovdan oʻtgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Mazkur tadqiqot natijalari boʻyicha jami 24 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 23 ta maqola (shundan 7 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, toʻrt bob va xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 259 bet hisoblanadi.

Отформатировано: не выделение цветом

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yoʻnalishlariga muvofiqligi, dissertatsiyaning mavzusi boʻyicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, tadqiq etilayotgan muammoning oʻrganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bogʻliqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi,

tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **birinchi bobi "Ijtimoiy tarmoq tushunchasi, uni tartibga solishning xususiyatlari"** deb nomlanib, unda ijtimoiy tarmoqlar tushunchasi va huquqiy tabiati, ijtimoiy tarmoqlarni huquqiy tartibga solishning xususiyatlari, ijtimoiy tarmoqlardagi munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish bilan bog'liq masalalar tahlil qilingan.

Ushbu bobda dissertant O'zbekiston olimlari (X.R.Raxmonqulov, I.Zokirov, O.Okyulov, S.Gulyamov, I.Nasriyev)ning fuqarolik huquqiy munosabatlari tushunchasi va mazmuni, shaxsiy nomulkiy huquqlarning tavsifi, I.Rustambekov, S.Bozarov, A.Yakubovlarning raqamli muhitda bunday munosabatlarni huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlariga oid, shuningdek, Sh.Xo'jaevning ijtimoiy tarmoqlarni huquqiy tartibga solishga oid fikrlari o'rganilgan. Shu bilan birgalikda xorijiy olimlardan D.Boyd, M.Ellison, N.Castells, M.Papacharissi va boshqalarning ijtimoiy tarmoqning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari va huquqiy tartibga solish mexanizmlari borasidagi fikr-mulohazalari tahlil etilib, alohida qonunchilik sohasida ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish zarurati asoslantirildi.

Bob doirasida ijtimoiy tarmoqlar nafaqat muloqot vositasi, balki fuqarolik-huquqiy munosabatlar, xususan shaxsiy ma'lumotlar muhofazasi, intellektual mulk huquqlari va shartnomaviy munosabatlar shakllanadigan platforma sifatida bir vaqtning o'zida sub'ekt va obyekt rovida munosabatga kirishishi asoslantirildi.

Ijtimoiy tarmoq tushunchasiga ilmiy-doktrinal ta'rif ishlab chiqildi. Unga ko'ra, ijtimoiy tarmoq deganda – internet axborot-telekommunikatsiya tarmog'idagi ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari tomonidan Internetda tarqatish va uzatish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar, yozma matnlar, tasvirlar, ovoz yozuvlari, musiqiy asarlar, audiovizual asarlar va foydalanuvchilar o'rtasida masofaviy muloqot qilish, boshqa ma'lumotlar almashinuvi uchun mo'ljallangan sayt tushuniladi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi fuqarolik-huquqiy munosabat sub'ektlari ishtiroki batafsil ko'rib chiqilib, munosabat sub'yektini (ijtimoiy tarmoq egasi, akkaunt yoki sahifa egasi, foydalanuvchi, ishtirokchi (obunachi), regulyator (davlat va o'zini-o'zi boshqarish), reklama beruvchi) kesimida tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlardagi obyektlar ijtimoiy tarmoqning o'zi, ijtimoiy tarmoqdagi akkaunt (profil), virtual mulk, raqamli aktiv, ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilgan ma'lumotlar, izohlar, yoqtirishlar (like), shuningdek, tarmoqdagi guruhlar kabi obyektlarni o'z ichiga olgan bir nechta mustaqil, ammo bir-biri bilan texnik jihatdan bog'liq bo'lgan shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqiy obyektlarining majmuasidan iborat.

Ijtimoiy tarmoqlarning huquqiy tabiati murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ularni tartibga solishda xususiy va ommaviy huquqiy rejimlarning muvozanatini ta'minlash zarur. Garchi, ijtimoiy tarmoqlarda xususiy ishlarga o'zboshimchalik bilan aralashishga yo'l qo'yilmasligi tamoyili mavjud bo'lsada, foydalanuvchilarning shaxsiy-nomulkiy huquqlarni hamda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, maxfiylik, so'z erkinligi va kontentni tartibga solishning muhimligi nuqtai nazaridan ommaviy huquqiy nazorat funksiyasi ham zarur.

Akkauntga nisbatan huquqlar fuqarolik muomalasi obyektini sifatida erkin muomalada bo'la oladi va meros huquqlari tarkibiga kiritilishi mumkin. Shuningdek, Fuqarolik kodeksida akkauntning raqamli huquqlar tarkibiga kiruvchi fuqarolik huquqining obyektini sifatidagi huquqiy maqomini belgilash, akkauntni meros qilib olish, meros qoldiruvchilar vafotidan keyin akkauntlarga kirish huquqini berish, akkauntlarni boshqarish bilan bog'liq huquqlarni uchinchi shaxslarga o'tkazish bo'yicha qoidalarni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Dissertant tomonidan Europa Ittifoqi, AQSH, Yaponiya, Xitoy va MDH mamlakatlari tajribasidagi turli huquqiy tartibga solish modellari, ularning o'ziga xos yondashuvlari ko'rsatib berildi. Masalan, Europa Ittifoqida "Ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha umumiy reglament" (GDPR) – shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, ishlatish va qayta ishlash qoidalarini belgilaydi va foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlariga kirish, ko'chirish va o'chirish huquqlarini tartibga soladi. Germaniyada esa 2018-yil 1-yanvarda kuchga kirgan "Tarmoqni himoya qilish to'g'risida"gi qonun Facebook, Instagram, X, YouTube kabi yirik platformalari zimmasiga qonunchilikka ko'ra noqonuniy deb topilgan kontentni zudlik bilan olib tashlash majburiyatini yuklaydi.

O'zbekistonda ijtimoiy tarmoq atamasi ishlatilib kelinayotgan bo'lsa-da, qonunchilik nuqtai nazardan uning rasmiy ta'rif mavjud emas. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, "Axborotlashtirish to'g'risida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi, "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunlarda cheklangan normalar mavjud bo'lib, ular ijtimoiy tarmoqlarning huquqiy tartibga solishni to'liq qamrab olmaydi. Shu sababli muallif "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi, "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi, "Bolalarni ularni sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ochiqligi to'g'risida"gi, "Jurnalistlik faoliyatni himoya qilish to'g'risida"gi, "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi, "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunlarni o'zaro unifikatsiya qilish orqali tizimlashtirilgan Axborot kodeksini qabul qilish va ushbu Kodeksda ijtimoiy tarmoqlarni huquqiy tartibga solishning aniq mexanizmlari belgilanishi lozimligi asoslantirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 yil 4 fevraldagi SQ-479-IV-sonli qaroriga ilovaga ko'ra, 2022 yil holatida eng ommabop bo'lgan "Telegram" messenjeridagi 35 ta faol kanalda odob-axloq talablariga mos kelmaydigan o'zbek auditoriyasiga qaratilgan 7738 ta material mavjudligi aniqlangan. Birgina "Telegram" messenjeri va "TikTok" videoplatformasining O'zbekiston auditoriyasi uchun yo'naltirilgan resurslarida fahsh yoki pornografik kontent orqali auditoriya to'plash va reklama hisobidan daromad topishga qaratilgan 7 ta kanal aniqlangan (umumiy obunachilari soni – 120 721 nafar). "Telegram" messenjerida umumiy obunachilari soni 44 479 nafar bo'lgan aqidaparastlik yoki ekstremistik mazmundagi virtual 43 ta resurs mavjudligi, xuddi shu mazmundagi materiallarning tarqatilishi va targ'iboti bilan "TikTok" videoplatformasida 20 ta

profil faoliyat ko'rsatayotgani, uning umumiy obunachilari soni 25 458 nafarni tashkil etayotgani, "Instagram" tarmog'ida qurol-yarog'lar targ'iboti bilan shug'ullanuvchi 2 ta sahifa mavjud bo'lib, kanalning umumiy a'zolari soni 17 924 nafarni tashkil etishi aniqlangan. Mazkur raqamlar ushbu sohani huquqiy tartibga solish zarurati nechog'lik dolzarb ekanligini anglatadi. Muallifning fikricha, ijtimoiy tarmoqlardagi munosabatlarni tartibga solish dolzarb va murakkab vazifa bo'lib, qonun chiqaruvchi va tartibga soluvchi organlarning o'zaro hamkorligini va tegishli choralar ko'rilishini talab qiladi.

"Ijtimoiy tarmoqlarda majburiyat huquqiy munosabatlarni tartibga solish" deb nomlanadigan **ikkinchi bobda** ijtimoiy tarmoqlardagi majburiyat huquqiy munosabatlarning umumiy tavsifi, ijtimoiy tarmoqlarda shartnoma va shartnomadan tashqari majburiyatlar tadqiq qilingan.

Zamonaviy fuqarolik huquqiy munosabatlar predmeti asosan moddiy ashyoviy obyektlarni tashkil qilsada, so'nggi yillarda yangi turdagi raqamli huquqlar obyektlari muomalasi keng tarqalmoqda. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda "akkauntlar oldi-sotdisi" tobora ommaviylashmoqda, hatto maxsus "bozorlar" ham vujudga kela boshladi. Bunday aktivlarga iqtisodiy qiziqish allaqachon xaridorga mashhur bo'lgan blogni auditoriyasiga qo'shib sotib olish, keyinchalik reklama orqali daromad olish, o'z tovar va xizmatlarini targ'ib qilish, yangi mijozlarni jalb qilish va boshqa maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq. Bu holatlar fuqarolik huquqiy tartibga solishning dolzarbligidan dalolat beradi.

Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlarni huquqiy tartibga solishga doir ba'zi xorijiy mamlakatlar (Rossiya, Xitoy)da o'rnatilgan cheklovlar tahlil qilinib, mamlakatimizda bunday cheklashning fuqarolik huquqiy tartibga solishga ta'siriga huquqiy baho berilgan.

Muallifning fikriga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlardagi oldi-sotdida sotuvchi va ijtimoiy tarmoq o'rtasida, xaridor va ijtimoiy tarmoq o'rtasida, xaridor va sotuvchi o'rtasida uchta majburiyat-huquqiy munosabatlar guruhi shakllanadi. Tadqiqotchi ijtimoiy tarmoqlarda tuziladigan shartnomalarning asosiy turlarini tahlil qilib, ularni xizmat ko'rsatish shartnomalari, pudrat shartnomalari, kontent yaratish shartnomalari, hamkorlik shartnomalari kabi shartnomalarga tasniflanib o'rganilgan.

Tadqiqot natijasida ijtimoiy tarmoqlar taqdim etayotgan barcha imkoniyatlar va imtiyozlarga qaramay, raqamli muhitdagi shartnomaviy munosabatlarini amalga oshirishda (*Elkin-Koren, N., De Gregorio, G., Perel, M.*) huquqiy tartibga solish va bunday majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq quyidagi muammolar mavjudligi aniqlandi: birinchidan, amaldagi qonunchilikda ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlar holatining aniq belgilanmaganligi huquqiy noaniqlikni keltirib chiqaradi, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni hal qilish jarayonini murakkablashtiradi. Ikkinchidan, foydalanuvchilarning ma'lumotlari haqiqiylikni tekshirishning qiyinligi firibgarlikka, shartnoma taraflarining huquqlarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Uchinchidan, kontentning ijtimoiy tarmoqlarda tarqalishi global darajada sodir bo'lishi sababli raqamli muhitda intellektual mulk va shaxsiy daxlsizlikni

himoya qilish qiyinlashadi, mualliflik huquqlari va tijorat sirlarining buzilishiga olib kelish ehtimolini oshiradi.

Mazkur bobda iste'molchilar huquqlarini raqamli makonda himoya qilish zarurati oshganligi, iste'molchilarning axborot olish, tanlash va zararni qoplash kabi an'anaviy huquqlari onlayn o'zaro aloqalar va operatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilishi masalasi kun tartibiga chiqqanligi ta'kidlanadi. Raqamli makonda iste'molchilarning huquqlarining buzilishlari belgilangan talablarga javob bermaydigan xavfli tovarlarni sotish; tovarlarning iste'mol xususiyatlari to'g'risida iste'molchini ataylab chalg'itish; tovar yetkazib berish (xizmat ko'rsatish) muddatlarini buzish; to'lov amalga oshirilgandan so'ng kelishuv bo'yicha tovarni yetkazib bermaslik (xizmatni ko'rsatmaslik); sifatsiz yoki tavsifga (kutulganga) mos kelmaydigan tovar (xizmat)ni sotish; sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) haqidagi ma'lumotni yashirish yoki to'liq oshkor qilmaslik; iste'molchi talablarini ko'rib chiqishdan bosh tortish; iste'molchi to'lagan mablag'larni qaytarmaslik (qaytarishdan bosh tortish); iste'molchiga yetkazilgan zararni qoplashni rad etishda namoyon bo'lishi ta'kidlandi.

O'zbekistondagi amaldagi qonunchilik bazasi ta'sir etuvchi marketing, mahalliy reklama, ijtimoiy tarmoqlardagi yolg'on yoki chalg'ituvchi reklama kabi onlayn reklama va ma'lumotlarni oshkor qilish bilan bog'liq masalalarni yetarli darajada hal etmasligi bois "Reklama to'g'risida"gi Qonunga uning amal qilishi reklama tayyorlangan joydan qat'i nazar, agar mazkur reklama O'zbekiston Respublikasi hududida foydalanishga va tarqatishga qaratilgan bo'lsa, reklamaning aylanishi sohasidagi barcha munosabatlarga nisbatan tatbiq etilishini belgilash lozimligi haqida fikrlar ilgari surilgan.

Dissertatsiyada *O.Oqyulov, N.Qo'ldoshev, N.Yansenlarning* delikt majburiyatlari borasidagi nuqtai nazarlari tadqiq etilib, bu munosabatlarning aynan ijtimoiy tarmoqlarda namoyon bo'lish xususiyatlari ochib beriladi. Ijtimoiy tarmoqlarda shartnomadan tashqari majburiyatlarning buzilishidan kelib chiqadigan huquqiy nizolar tuhmat, shaxsiy hayotga tajovuz qilish, mualliflik huquqini buzish yoki zararli kontentni tarqatish kabi turli masalalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu borada mamlakatimiz sud amaliyoti materiallarini tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **uchinchi bobi "Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy nomulkiy huquqlarning tartibga solinishi"** – deb nomlanadi. Ushbu bobda ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy nomulkiy huquqlarning umumiy tavsifi, sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilishning o'ziga xos xususiyatlari, mualliflik huquqini himoya qilish muammolari ilmiy-nazariy va amaliy nuqtai nazardan tahlil etilgan.

Dissertant fuqarolik qonunchilik hujjatlari shaxsiy nomulkiy huquqlarni barchasini nomma-nom qamrab olmaganligi ularning qonun muhofazasiga olmaganligini anglatmasligini, ijtimoiy tarmoqlarda nomoddiy ne'matlar va shaxsiy nomulkiy huquqlarni har birini fuqarolik-huquqiy tartibda muhofaza qilishning nazariy va amaliy muammolarini birma-bir sanab o'tishning imkoni ham yo'qligini ta'kidlab, mazkur bobda nomoddiy ne'matlar ichida markaziy o'rin tutadigan va ijtimoiy tarmoqlarda nisbatan ko'proq buziladigan va daxl qilinadigan tasvirga bo'lgan huquq, sha'n va qadr-qimmat, ishchanlik obro'si hamda mualliflik huquqi kabi shaxsiy nomulkiy huquqlar muhofazasiga alohida to'xtalib o'tgan.

Raqamli muhitda foydalanuvchilar ko'pincha o'zlarining shaxsiy ma'lumotlari, nuqtai nazarlari va fotosuratlarini ijtimoiy tarmoq platformalariga yuklashadi, bu esa ularning shaxsiy hayotlariga ta'sir qilishi mumkin. Axborot almashish imkoniyati va shaxsiy ma'lumotlarning nomaqbul shaxslar tomonidan foydalanilishi mumkinligi, ma'lumotlar xavfsizligi, ulardan ruxsatsiz foydalanish va onlayn kuzatuvga oid xavotirlarni keltirib chiqaradi. Binobarin, shaxsiy daxlsizlikni himoya qilish ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy huquqlarni ta'minlashning muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Tadqiqotda aniqlanishicha, ijtimoiy tarmoqlardagi anonimlik va foydalanuvchilar tomonidan turli taxalluslardan foydalanish sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilishda ma'lum murakkabliklarga sabab bo'lmoqda. Anonim foydalanuvchilarni aniqlash va javobgarlikka tortish bilan bog'liq muammolar ijtimoiy tarmoq platformalari, huquqni muhofaza qilish organlari va internet provayderlari o'rtasidagi izchil hamkorlikni talab qiladi.

Yang, B., Zhang, R., Cheng, X., & Zhao, C. yondashuvlari tahlili asosida onlayn ijtimoiy tarmoq platformalari ko'pincha foydalanuvchilarga anonimlikni saqlash yoki taxalluslardan foydalanish imkoniyatini berishi o'rganildi. Anonimlik shaxslarga bosim o'tkazmasdan erkin fikr bildirishga imkon bersa-da, undan salbiy maqsadlarda, jumladan, tuhmat, onlayn ta'qib yoki zararli harakatlarda ham foydalanish mumkinligi haqida xulosaga kelingan. Bu foydalanuvchi anonim bo'lgan hollarda bunday harakatlar uchun javobgar shaxslarni aniqlash va javobgarlikka tortishni qiyinlashtiradi. Shu bilan birga, axborot tarqalishining jadal sur'ati, anonimlik va yurisdiksiya masalalari, platforma operatorlarining roli, axborotning barqarorligi, madaniy va ijtimoiy farqlar ijtimoiy tarmoqlarda sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilishni murakkablashtirmoqda.

Muallifning fikricha, ijtimoiy tarmoqda shaxsning sha'ni, qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlarni tarqatgan aybdorning shaxsini aniqlash imkoni bo'lmaganda sud manfaatdor shaxsning arizasiga ko'ra u haqida tarqatilgan ma'lumotlarni noqonuniy deb topishga haqli bo'lishi, bu haqida qonun hujjatlarini takomillashtirish zarur. Agar shaxsning sha'ni, qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar tarqatilganidan keyin Internet sayti yoki ijtimoiy tarmog'larda mavjud bo'lib qolsa, fuqaro tegishli ma'lumotlarni olib tashlashni, shuningdek, Internet va ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilariga yetkazilishini ta'minlaydigan usulda ushbu ma'lumotlarga raddiya berishni talab qilishga haqli.

Tadqiqotchi kontent moderatsiyasida platformalarning zararli kontentni kamaytirish va so'z erkinligini ta'minlashdagi muvozanatni saqlash vazifasi ham muhimligini ta'kidlab, onlayn platformaga yuklangan kontentni filtrlash texnologiyalari va hamjamiyat tavsiyalari kabi mexanizmlarning samaradorligi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni doimiy ravishda baholash imkoniyatlari takomillashtirishga muhtojligi haqida xulosaga kelgan.

Shaxsning tasvirini himoya qilish ham bugungi raqamlashgan davrda juda muhim hisoblanadi. Keyingi yillarda ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolarning tasvirlaridan foydalangan holda ularning sha'ni va qadr-qimmatiga, ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi, shaxsiy va oilaviy sirini oshkor etuvchi ma'lumotlar

tarqatish holatlari ko'plab uchramoqda. Fuqaroning tasviridan ruxsatsiz foydalangan shaxs bilan birgalikda ushbu tasvir namoyish qilingan, foydalanilgan ommaviy axborot vositalari, Internet va ijtimoiy tarmoq egalari javobgarligi chegarasini aniq belgilash lozimligi asoslantrilgan.

Mualliflik huquqi bilan himoyalangan kontentning ruxsatsiz tarqatilishiga qarshi kurashda ijtimoiy tarmoq platformalari va mualliflik huquqi egalari o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Platformalar mualliflik huquqi egalari huquqbuzarliklar haqida xabar berish, kontentni o'chirish jarayonini soddalashtirish hamda mualliflik huquqi egalari va bunday huquqni ehtimoliy buzuvchi shaxslar o'rtasida samarali muloqotni rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishi kerak. Kontentni aniqlash texnologiyalaridan foydalanish kabi proaktiv strategiyalar mualliflik huquqi bilan himoyalangan materiallarni ruxsatsiz tarqatishni aniqlash va oldini olishga yordam beradi.

Tadqiqotda, onlayn kontentning keng va doimiy o'zgaruvchan tabiatini hisobga olgan holda ma'lumotlarni ko'chirish va unutilish huquqi tamoyillarining foydalanuvchilarning o'z shaxsiy ma'lumotlarini nazorat qilishlari uchun muhimligi o'rganildi. Ma'lumotlarni ko'chirish huquqi foydalanuvchilarga o'z ma'lumotlariga kirish va ularni turli platformalar o'rtasida uzatish imkoniyatini beradi. Boshqa tomondan, unutilish huquqi foydalanuvchilarga o'z shaxsiy ma'lumotlarini o'chirishni talab qilish huquqini beradi.

Qonunchilikda mualliflik va turdosh huquqlarni internet tarmog'ida buzgan shaxslarga nisbatan tegishli javobgarlik choralari belgilangan. Amaliyotda aksariyat hollarda "Telegram", "Instagram", "Youtube", "Facebook" kabi ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik va turdosh huquqi obyektlarini noqonuniy tarqatgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni aniqlashtirish bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli ushbu bobda AQSHning Raqamli ming yillikda mualliflik huquqi to'g'risidagi Akti (DMCA) tajribasidan kelib chiqqan holda internet tarmog'ida sodir etilgan huquqbuzlik holatlari bo'yicha internet provayderlar hamda platformalarning javobgarligi masalalarida o'rganilib, ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik va turdosh huquqlarning buzilishi bo'yicha internet provayderlar hamda platformalarning javobgarligini nazarda tutuvchi qoidalarni qonunchilikka uyg'unlashtirish taklif qilingan.

Dissertatsiyaning **to'rtinchi bobi – "Ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolik munosabatlarini huquqiy tartibga solish istiqbollari"**ga bag'ishlangan bo'lib, unda ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda yuzaga keladigan muammolar, kibermakonda fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda yurisdiksiyani aniqlash masalalari, ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolik-huquqiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish istiqbollari tahlil etilgan.

Muallif raqamli makonda yuz berayotgan va fuqarolik huquqlarini buzilishiga sabab bo'layotgan jiddiy muammolar sifatida maxfiylik masalalarining murakkabligi, kiberbullig va ta'qibning keng ko'lamli oqibatlarini, tuhmat to'g'risidagi qonunchilikning nozik tomonlari va dezinformatsiyaning keng tarqalgan oqibatlarini tahlil qilgan. Xalqaro normalar qo'llanilishidagi muammolar, algoritmik tarafkashlik va kamsitish natijasida paydo bo'lgan muammolar, foydalanuvchi kelishuvlari va roziligi bilan bog'liq izohli dilemmalarni ham bunday

muammolar safiga kiritgan. Muallifning fikricha, ushbu masalalarning har biri, garchi u individual ko'rib chiqish va hal qilishni talab qilsa-da, boshqalari bilan ham bog'liq, bu esa kompleks yondashuvni taqozo etadi. Huquqiy ta'riflardan tortib texnologik cheklovlar va axloqiy mulohazalargacha bo'lgan ushbu muammolarning xilma-xilligini hisobga olgan holda, huquqiy, texnologik va ijtimoiy jihatlarni o'z ichiga olgan ko'p qirrali yechim talab etiladi.

Dissertant ushbu muammolarni hal qilish uchun huquqiy va siyosiy asoslar ishlab chiqilishi, platformalar siyosatini qayta ko'rib chiqish va foydalanuvchilarni o'qitish birgalikda amalga oshirilishi kerakligini, tarmoq platformalari kontentni moderatsiya qilishning ishonchli strategiyalarini birlashtirishi, soxta ma'lumotlarni aniqlash va olib tashlash uchun sun'iy intellekt va mashinaviy o'qitish usullarini qo'llashi, shuningdek, foydalanuvchilar o'rtasida media savodxonlikni oshirishi kerakligini ta'kidlaydi. Ushbu chora-tadbirlarning shaffofligi ham foydalanuvchilarning ishonchini saqlab qolish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ushbu bobda muallif sun'iy intellektning ijtimoiy tarmoq boshqaruviga kiritilishi, uning afzalliklariga qaramay, jiddiy axloqiy va huquqiy muammolarni keltirib chiqarishiga e'tibor qaratgan. Bu muammolarga maxfiylik va rozilik masalalari, oshkorlik va javobgarlik hamda ehtimoliy tarafkashlik kabi masalalar kiradi.

Ijtimoiy tarmoq platformalarini tartibga solishda foydalanuvchi kelishuvlari va rozilik mexanizmlari muhim roli e'tirof etilib, ular platformalarning o'zlari va foydalanuvchilar o'rtasidagi huquq va majburiyatlarini belgilashi, biroq, bu shartnomalarda qo'llaniladigan yuridik tilning murakkabligi, platformalar va foydalanuvchilar o'rtasidagi shartnoma shartlarini belgilashdagi kuchlar nomutanosibliги hamda ommabop platformalarga munosib muqobillar yo'qligi sababli ko'r-ko'rona rozilik bilan shartnomalar tuzilishiga e'tibor qaratiladi.

Muallif ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda vujudga keladigan muammolar asosan fuqarolik huquqi orqali hal etilishini, fuqarolik huquqiy himoya ko'pincha ushbu platformalarda yetkazilgan zararni qoplashning samarali mexanizmlarini taklif qilishini ta'kidlaydi.

Ishda ijtimoiy tarmoqlarda ma'lumotlar bilan ishlash jarayonida shaffoflikni ta'minlash, jumladan ma'lumotlar subyektlarini ma'lumotlarning qanday ishlatilayotgani haqida xabardor qilish ijtimoiy tarmoq platformalari zimmasidagi muhim majburiyat ekanligi, shaffoflik ma'lumotlarning to'planishi, ishlatilishi va oshkor qilinishi kabi barcha bosqichlarni qamrab olishi kerakligi, bu esa subyektlarga o'z ma'lumotlari ustidan nazoratni amalga oshirish imkonini berishi asoslab berilgan.

Dissertant ilg'or xalqaro tajribalar (EI, AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya)ni o'rganish asosida O'zbekiston qonunchiligini ushbu sohani optimallashtirishning batafsilroq va sohaviy tartibga solish, maxfiylikni tartibga solishga sohaviy yondashuvlarni o'rganish, huquqni qo'llash mexanizmlarini kuchaytirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, foydalanuvchilarni o'qitish va ularning xabardorligini oshirish, umumiy qonunchilikni takomillashtirish kabi yo'nalishlarda takomillashtirishni taklif qiladi.

Xalqaro hamkorlik va milliy qonunchilik asoslarini uyg'unlashtirish asosida yurisdiksiyaviy masalalarni hal etish, jismoniy va yuridik shaxslarga ularning joylashgan joyidan yoki yetkazilgan zarari qayerda bo'lishidan qat'i nazar uni qoplash imkoniyatini yaratish muhim ahamiyatga egaligi tadqiqotda ochib berildi. Bu masalaning yechimi sifatida xususiy huquqni unifikatsiya qilish bo'yicha Xalqaro Institut (UNIDROIT – International Institute for the Unification of Private Law) tamoyillari asosida umumiy standartlarni ishlab chiqish yuzasidan xulosaga kelingan.

Ijtimoiy tarmoqlarni tartibga solish bilan bog'liq masalalarni o'rganish natijasida olingan xulosalar asosida O'zbekistonda qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar va takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, kibermakonga oid milliy qonunchilikni xalqaro normalar va konvensiyalarga muvofiqlashtirish tavsiya etilgan.

XULOSA

Ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolik munosabatlarni huquqiy tartibga solishni tahlil qilgan holda quyidagi ilmiy-nazariy xulosalar, qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga qarailgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar

1. Ijtimoiy tarmoq deganda internet axborot-telekommunikatsiya tarmog'idagi ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari tomonidan Internetda tarqatish va uzatish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar, yozma matnlar, tasvirlar, ovoz yozuvlari, musiqiy asarlar, audiovizual asarlar va foydalanuvchilar o'rtasida masofaviy muloqot qilish, boshqa ma'lumotlar almashinuvi uchun mo'ljallangan sayt deb tariflash maqsadga muvofiq. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ham subyekt, ham ob'jekt sifatida ishtirok etishi mumkinligi asoslantirildi.

2. Ijtimoiy tarmoqlarning fuqarolik huquqiy munosabatlarda subyektliligi o'rganilib, u bir vaqtning o'zida ijtimoiy tarmoq egasi, akkaunt yoki sahifa egasi, ishtirokchi (obunachi), regulyator (o'zini-o'zi boshqarish), reklama beruvchi) subyekt sifatida huquqiy munosabatga kirishishi mumkinligi asoslab berildi.

3. Ijtimoiy tarmoqlar fuqarolik huquqiy munosabatlarda murakkab obyekt bo'lib, bir nechta mustaqil, ammo bir-biri bilan texnik jihatdan bog'liq bo'lgan shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqiy obyektlarining majmuasidan iborat. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlardagi obyektlar ijtimoiy tarmoqning o'zi, ijtimoiy tarmoqdagi akkaunt (profil), virtual mulk, raqamli aktiv, ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilgan ma'lumotlar, izohlar, yoqtirishlar (like), shuningdek, tarmoqdagi guruhlar kabi murakkab obyektlarni o'z ichiga oladi.

4. Ijtimoiy tarmoqlarning huquqiy tabiati murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ularni tartibga solishda xususiy va ommaviy huquqiy rejimlarning muvozanatini ta'minlash zarur. Garchi ijtimoiy tarmoqlarda xususiy ishlarga o'zboshimchalik bilan aralashishga yo'l qo'yilmasligi tamoyili mavjud bo'lsada, foydalanuvchilarning shaxsiy-nomulkiy huquqlarni hamda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, maxfiylik, so'z erkinligi va kontentni tartibga solishning muhimligi nuqtai nazaridan ommaviy huquqiy nazorat funksiyasi ham zarur.

5. Zamonaviy raqamli platformalarning global va virtual tabiati, ularda ma'lumotlar almashinishining tezkorligi va transchegaraviy xususiyati ijtimoiy tarmoqlarni huquqiy tartibga solishda turli yurisdiksiyalardagi qonunlarni qo'llash, kontentni moderatsiya qilish va platforma operatorlarining foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontent uchun javobgarligini belgilash zarurati kabi murakkab huquqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu muammolarning yechimi sifatida ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va virtual aloqalarda foydalanuvchilarning huquq va erkinliklarini kafolatlash, shuningdek, platformalarning avtomatik nazorat mexanizmlarini joriy qilish lozimligi asoslantirildi.

6. Akkauntga nisbatan huquqlar fuqarolik muomalasi obyekt sifatida erkin muomalada bo'la olishi, meros huquqlari tarkibiga kirishi mumkinligi asoslantirildi. Fuqarolik kodeksida akkauntning fuqarolik huquqi obyekt sifatidagi huquqiy maqomini belgilash, akkauntni meros qilib olish, meros qoldiruvchilar vafotidan keyin akkauntlarga kirish huquqini berish, akkauntlarni boshqarish bilan bog'liq huquqlarni uchinchi shaxslarga o'tkazish bo'yicha yagona sud amaliyotini shakllantirish va hokazo.

7. Jahonning turli mamlakatlarda ijtimoiy tarmoqlarni huquqiy tartibga solish bo'yicha turli yondashuvlar aniqlangan bo'lib, ularning tajribasi O'zbekistonda samarali va muvozanatli tartibga solish modellarini shakllantirish uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, maxfiylikni va xususiylikni ta'minlash, kiberbulling, ijtimoiy tarmoqda ta'qib etish, tuhmat, difamatsiya, dezinformatsiya va soxta xabarlarini tarqatish, algoritmik noxolislik va kamsitish uchun foydalanuvchi kelishuvlari va ijtimoiy tarmoq platformalarining javobgarligi belgilanmog'i lozim.

8. Ijtimoiy tarmoqlarga doir shartnomaviy munosabatlar tadqiq etilib, ijara, oldi-sotdi, litsenziya va boshqa shartnomalarni qo'llash istiqbollari aniqlandi. Tadqiqotchi akkauntga nisbatan universal huquqiy vorislik qoidasining qo'llanilishi (Germaniya Federativ Respublikasi) unga nisbatan mulk huquqi, mulkiy huquq obyektiga doir konsepsiyalarni qo'llash, ijtimoiy tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda identifikatsiya, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish zarur degan xulosaga keladi.

9. Tadqiqot natijasida ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga ustuvor ahamiyat berilishi lozim degan xulosaga kelindi. Bunda nafaqat shaxsiy daxlsizlik, balki sun'iy intellekt, virtual va to'ldirilgan reallik (Virtual and Augmented Reality), "chalg'ituvchi" avtomatik algoritmlar sharoitida ijtimoiy tarmoq tizimlariga bo'lgan ishonch, ma'lumotlardan foydalanishda tenglik, ochiqlik, shaffoflik bilan bog'liq masalalarni hal etish zarurati asoslantirildi.

10. Tadqiqotda huquqiy mexanizmlardan foydalanuvchilar, ijtimoiy tarmoq provayderlari va regulyatorlarga nisbatan "uch tomonlama ma'suliyat" belgilanishi muhimligi asoslab berildi. Xususan, regulyatorlar qoidabuzarliklarni faqat ijtimoiy tarmoq ichki qoidalari yoki foydalanuvchi kelishuvi (user agreement) asosida emas, balki milliy qonunchilik normalariga havola qilgan holda kengroq huquqiy asoslarga tayanishi zarur hisoblanadi.

11. Raqamli axborot asrida ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy nomulkiy huquqlarni himoya qilish maqsadida dezinformatsiya va “feyk yangiliklar”ga qarshi kurash alohida huquqiy yondashishni talab qiladi. Muallifning fikricha, dezinformatsiya va “soxta yangiliklar”ga qarshi kurashish murakkab vazifa bo‘lib, so‘z erkinligini himoya qilish va tuhmat, nafrat so‘zlari va dezinformatsiya kabi zararli kontentni yumshatish o‘rtasida muvozanatni topish alohida “regulyatsion” e‘tiborni talab etadi.

12. Milliy qonunchilik tahlili shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy tarmoqlardagi munosabatlarni tartibga soluvchi yagona qonunchilik mavjud bo‘lmagan sharoitda yetkazilgan zararni qoplash, onlayn reklama, kontentni moderatsiya qilish, ijtimoiy tarmoq platformalari mas‘uliyati, iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish, transchegaraviy muammolarni tartibga solish yuzasidan masalalar “huquqiy bo‘shliqni” vujudga keltirgan. Bu amaldagi qonunchilikni to‘ldirish va aniqlashtirish, shu jumladan, qayd etilgan bo‘shliqlarni bartaraf etish yuzasidan huquqiy asoslarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

13. Ijtimoiy tarmoqlarda axborotni “bir zumda” tezkor tarqalishi, axborot texnologiyalarining rivojlanishi shaxsiy nomulkiy huquqlarni himoya qilish himoya qilishni qiyinlashtiradi. Shu bilan birga, tadqiqotda ijtimoiy tarmoqda sodir bo‘ladigan tuhmat, shaxsiy hayotga tajovuz qilish va mualliflik huquqi buzilishi, ma‘lumotni keng qamrovli va tezkor tarqatilishi, subyektlarning “anonimlik” holati asosiy muammolar sifatida tahlil etilgan.

14. Ijtimoiy tarmoq platformalarining transchegaraviy xususiyati xalqaro miqyosda millionlab foydalanuvchilarning doimiy onlayn muloqoti milliy qonunlarni transchegaraviy huquqiy masalalarga qo‘llash va amalga oshirishda qiyinchiliklar tug‘diradi. Yurisdiksiya masalalari va turli mamlakatlarning qonunchilik me‘yorlaridagi farqlar mualliflik huquqi, sha‘n, qadr-qimmat va ishchanlik obro‘si va boshqa fuqarolik huquqlarini izchil himoya qilishni murakkablashtiradi.

15. Xalqaro hamkorlik va milliy qonunchilik asoslarini uyg‘unlashtirish asosida yurisdiksiyaviy masalalarni hal etish, jismoniy va yuridik shaxslarga ularning joylashgan joyidan yoki yetkazilgan zarari qayerda bo‘lishidan qat‘i nazar uni qoplash imkoniyatini yaratish muhim ahamiyatga egaligi tadqiqotda ochib berildi. Bu masalaning echimi sifatida xususiy huquqni unifikatsiya qilish bo‘yicha Xalqaro Institut (UNIDROIT – International Institute for the Unification of Private Law) tamoyillari asosida umumiy standartlarni ishlab chiqish yuzasidan xulosaga kelingan.

16. Tadqiqotga ko‘ra, ijtimoiy tarmoq provayderlari shaffof va samarali kontent moderatsiyasini amalga oshirishda platforma va sun‘iy intellekt algoritmlarining javobgarligini aniq belgilash, shaffoflikni oshirish, mustaqil kommission tuzilmalar tomonidan muntazam auditlar o‘tkazish va jamoatchilikning tashqi nazorati adolatni ta‘minlashga xizmat qilishi to‘g‘risida xulosalar berilgan.

17. Muallifning fikricha, faqat texnik yechimlar orqali algoritmik muammolarni to‘liq yechib bo‘lmaydi. Ularni samarali hal qilish algoritmlar tomonidan bilvosita diskriminatsiyani qat‘iy taqiqlash va ushbu tizimlarni tekshirish va nazorat qilish mexanizmlarini ishlab chiqishni o‘z ichiga olgan huquqiy va

me'yoriy bazani qayta ko'rib chiqish va yangilashni talab qiladi. Shu sababli, algoritmik noxolislik va kamsitishlarga qarshi kurash texnik, huquqiy va tartibga solish strategiyalari birgalikda o'zaro ta'sir qiladigan kompleks yondashuvni talab qilishi asoslantirildi.

18. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish shartnomalarining murakkabligi va ko'lami foydalanuvchilarning foydalanish shartlarini va ular bilan bog'liq oqibatlarni tushunishlarida shubhalar tug'diradi. Bunda, platformalar va foydalanuvchilar o'rtasidagi shartnoma shartlarini belgilashdagi nomutanosiblik, ommabop platformalarga munosib muqobillar mavjud emasligi hamda ko'r-ko'rona rozilikka yo'l quyilishi haqidagi xavotirlar potentsial me'yoriy-huquqiy bazalarni ishlab chiqishda inobatga olinishi tavsiya etiladi.

19. Ishchanlik obro'sini aniqlashda qanday sifat va mezonlardan foydalanish mumkinligi borasida aniqlik yetishmaydi. Jismoniy shaxsning ishchanlik obro'sini aniqlashda uning malakasi, faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) va boshqa jihatlari inobatga olinishi maqsadga muvofiq. Yuridik shaxsning ishchanlik obro'sini aks ettirishda mezonlar xizmat ko'rsatish sifati, uning bozordagi mavqei, iste'molchilarning fikri asosida ishlab chiqilishi muammoning yechimi sifatida qabul qilinishi zarur.

20. Foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontent asl va hosila asarlar orasidagi chegarani yo'qqa chiqaradi, bu esa mualliflik huquqining buzilishini aniqlash uchun aniq ko'rsatmalar va kontentdan halollik bilan foydalanish huquqiga oid aniq qoidalarni talab qiladi. Ushbu qoidalarni ishlab chiqishda ommaviy va xususiy tartibga solish mexanizmlarining uyg'unligini ta'minlash zarurati asoslantirildi.

21. Tadqiqot ijtimoiy tarmoqlarni tartibga solish bilan bog'liq masalalarni o'rganishida O'zbekiston uchun kibermakonga oid milliy qonunchilikni xalqaro normalar va konvensiyalarga muvofiqlashtirish, transcchegaraviy hamkorlikni amalga oshirish, kontentni moderatsiya qilish hamda ma'lumotlarni himoya qilishda sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalardan foydalanishni qo'llash hamda raqamli savodxonlik kabi dasturlariga sarmoya kiritish haqida muhim xulosalarni beradi.

II. Normativ-huquqiy hujjatlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar:

22. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritishga oid takliflar:

FKga quyidagi mazmundagi 4¹-moddani kiritish taklif qilinadi:

4¹-modda. Fuqarolik qonunchiligining vaqt bo'yicha amal qilishi

“Fuqarolik qonunchiligi hujjatlari real va kibermakonda vujudga keladigan munosabatlarga nisbatan ularning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qo'llaniladi.

Fuqarolik qonunchiligi hujjatlari, agar unda boshqa holat belgilangan va mohiyatidan faqat real makonda vujudga kelishi mumkinligi anglashilmasa, kibermakondagi munosabatlarga nisbatan ham qo'llaniladi.”

FK 100-moddasini quyidagi tahrirda bayon qilish taklif etiladi:

“100-modda. Sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilish

Fuqaro o'zining sha'ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar yuzasidan, basharti bunday ma'lumotlarni tarqatgan shaxs ularning haqiqatga to'g'ri kelishini isbotlay olmasa, sud yo'li bilan raddiya talab qilishga haqli.

Fuqaro o'zi haqidagi ma'lumotlarni garchi ular haqiqatga to'g'ri kelsada, ularni o'z roziligisiz tarqatmaslikni talab qilish huquqiga ega.

Fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini yoki fuqarolar va yuridik shaxslarning ishchanlik obro'sini kamsituvchi ma'lumotlarni tarqatish deganda bunday ma'lumotlarni matbuotda e'lon qilish, radio va televideniye orqali efirga uzatish, kinoxronika va boshqa ommaviy axborot vositalarida namoyish etish, internet yoki ijtimoiy tarmoglar'ida tarqatish, shuningdek, boshqa telekommunikatsiya vositalaridan foydalanib tarqatish, rasmiy tavsifnomalarda bayon qilish, ommaviy nutqlar, mansabdor shaxslarga yo'llangan murojaatlarda u yoki bu shaklda, shu jumladan og'zaki shaklda, kamida bitta shaxsga xabar berish tushuniladi.

Raddiya fuqaro to'g'risidagi ma'lumotlar qanday tarqatilgan bo'lsa, xuddi shunday tarzda amalga oshirilishi kerak.

Shaxsning sha'ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlarni tarqatgan aybdorning shaxsini aniqlash imkoni bo'lmaganda, sud manfaatdor shaxsning arizasiga ko'ra u haqida tarqatilgan ma'lumotlarni haqiqatga to'g'ri kelmasligi faktini aniqlashga haqli.

Agar shaxsning davlat yoki jamiyat manfaatlarini ko'zlab axborotni olishi, foydalanishi, saqlashi va tarqatishi va shunga oid boshqa harakatlari boshqa shaxslarning sha'ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazsa, bunday harakatlar fuqarolik-huquqiy javobgarlik keltirib chiqarmaydi, quyidagi holatlar bundan mustasno: faktlarni to'qib chiqarish yoki buzib ko'rsatish; boshqa shaxs tomonidan taqdim etilgan axborotning to'g'riligi va ishonchliligini oqilona tekshirish majburiyatini bajarmaganlik; haqoratli so'zlardan yoki ifodalardan yoxud haqoratlashga qaratilgan o'zgacha usullardan foydalanib boshqa shaxsning obro'siga putur yetkazish.

Basharti, fuqaroning sha'ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar ommaviy-axborot vositalarida yoki ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilgan bo'lsa, ayni shu ommaviy-axborot vositalari yoki ijtimoiy tarmoqlarda raddiya berilishi lozim.

Fuqaro ommaviy axborot vositalarida Internet sayti va ijtimoiy tarmoqlarda uning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini kamsituvchi ma'lumotlar e'lon qilinganda u ayni o'sha ommaviy axborot vositalari, Internet sayti va ijtimoiy tarmoqlar orqali chiqib, o'zini himoya qilish huquqiga ega.

O'zining sha'ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar tarqatilgan fuqaro bunday ma'lumotlar rad etilishi bilan bir qatorda ularni tarqatish oqibatida yetkazilgan zararlar va ma'naviy ziyoning o'rnini qoplashni talab qilishga haqlidir.

Agar shaxsning sha'ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar tarqatilganidan keyin Internet sayti yoki ijtimoiy tarmoqlarda mavjud bo'lib qolsa, fuqaro tegishli ma'lumotlarni o'chirilishini talab

qilishni, shuningdek, Internet va ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilariga yetkazilishini ta'minlaydigan usulda ushbu ma'lumotlarga raddiya berishni talab qilishga haqli.

Ushbu moddadagi fuqaroning ishchanlik obro'sini himoya qilish to'g'risidagi qoidasi yuridik shaxsning ishchanlik obro'sini himoya etishga nisbatan ham tegishli yo'sinda tatbiq etiladi, ma'naviy ziyonning o'rnini qoplashga oid talab bundan mustasno. Yuridik shaxs ishchanlik obro'siga putur etkazilgan holda moddiy zararni qoplashni talab qilishga haqli.

Sud jismoniy shaxsning ishchanlik obro'sini aniqlashda uning jamiyat hayotida tutgan o'rni, malakasi, faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlarini, yuridik shaxsning ishchanlik obro'sini aniqlashda uning xizmat ko'rsatish sifati, bozordagi mavqei, iste'molchilarning fikrini inobatga olishga haqli."

FKga quyidagi moddalarni kiritish taklif qilinadi:

"100¹-modda. Fuqaro tasvirining himoyasi

Fuqaroni tasvirga tushirish, shuningdek, uning tasviridan foydalanish uchun ushbu fuqaroning roziligi, fuqaro voyaga yetmagan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan hollarda uning qonuniy vakillari roziligi talab etiladi. Vafot etgan fuqaroning tasviridan foydalanishda uning merosxo'rlarini roziligi talab etiladi.

Quyidagi hollarlarda bunday rozilik talab etilmaydi:

- 1) tasviridan davlat yoki jamiyat manfaatlari uchun foydalanilganda;
- 2) fuqaro tasviri ommaviy tadbirlarda (yig'ilishlar, konferensiyalar, konsertlar, tomoshalar, sport musobaqalari va shunga o'xshash tadbirlarda) va jamoat joylarida suratga olingan bo'lsa;
- 3) fuqaroning haq evaziga tushirilgan tasviridan undan ko'zlangan maqsadlarda foydalanilganda.

Fuqaroni tasvirga tushirish va uning tasviridan foydalanishga rozilik yozma shaklda bildiriladi.

Agar fuqaroning tasviri ushbu moddaning 1-bandi buzilgan holda olingan yoki foydalanilgan bo'lsa va internet yoki ijtimoiy tarmog'larda tarqatilgan bo'lsa, fuqaro ushbu tasvirni olib tashlashni, shuningdek, uni keyingi tarqatishni to'xtatish yoki taqiqlashni, o'chirishni talab qilish huquqiga ega.

Ommaviy axborot vositalari, Internet va ijtimoiy tarmoq egalari fuqaroning (uning merosxo'rlari, qonuniy vakillari)ning birinchi talabidayoq uni tasvirini tegishli ommaviy axborot vositasi, internet sayti yoki ijtimoiy tarmog'idan olib tashlashi shart.

Fuqaroning talabi bilan ommaviy axborot vositasi, internet sayti yoki ijtimoiy tarmog'idan olib tashlanmaganda Ommaviy axborot vositalari, Internet va ijtimoiy tarmoq egalari tasviridan ruxsatsiz foydalangan shaxs bilan birgalikda solidar javobgar bo'ladilar.

Fuqaroni tasvirini yashirincha olishga mo'ljallangan maxsus texnik vositalardan foydalangan holda tasvirga olish sudda javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat sifatida baholalanishi lozim.

Fuqaroning tasvirini tegishli ommaviy axborot vositasi, internet sayti yoki ijtimoiy tarmog'idan olib tashlanganligi uni ruxsatsiz foydalangan shaxsni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

100²-modda. Fuqaroning shaxsiy hayotini muhofaza qilish

Fuqaro shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan, yozishmalar, telefon so'zlashmalari, intim hayot, farzandlikka olish, tug'ilish, advokat-mijoz sirlari, tibbiyot xodimining sirlari, bank depozitlari va qonunlari bilan qo'riqlanadigan boshqa sirlarini sir saqlanishi huquqiga ega.

Fuqaroning shaxsiy hayoti haqidagi axborotni davlat va jamiyat manfaatlari uchun, shuningdek bunday axborot ilgari umumfoydalanishda bo'lgan bo'lsa yoxud fuqaroning o'zi tomonidan yoki uning roziligi bilan oshkor etilgan bo'lsa, yig'ish, saqlash, tarqatish va foydalanish ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan qoidani buzish hisoblanmaydi.

Fuqaro O'zbekiston Respublikasi hududida iste'molchilarni e'tiborini jalb etishga qaratilgan reklama tarqatuvchi qidiruv tizimining operatoridan Internet tarmog'ida uning shaxsiga oid ma'lumotlarga kirishga ruxsat beruvchi Internet sayt sahifasida (shu jumladan havolada) o'zi to'g'risida O'zbekiston qonunchiligini buzgan holda tarqatilgan, ishonchsiz, dolzarb bo'lmagan, shuningdek, fuqaroning keyingi voqealari yoki harakatlari tufayli ariza beruvchi uchun ahamiyatini yo'qotgan ma'lumotlarni berishni to'xtatishni talab qilish huquqiga ega. Bundan jinoiy javobgarlikka tortish muddatlari o'tmagan jinoiy xatti-harakatlar to'g'risidagi, shuningdek, fuqaroning sudlanganligi olib tashlanmagan yoki muddati o'tmagan jinoyat sodir etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar mustasno.

Fuqaro vafot etgan taqdirda, uning shaxsiy hayotini ushbu Kodeksning 106-moddasi ikkinchi qismi hamda mazkur moddada nazarda tutilgan usullar bilan himoya qilishni fuqaroning qonuniy merosxo'rlari talab qilish huquqiga ega.

989¹-modda. Axborot vositachisining javobgarligi

Internet tarmog'ida ma'lumot uzatuvchi shaxs, axborot-telekommunikatsiya tarmog'idan foydalangan holda ma'lumot yoki uni olish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni joylashtirish imkoniyatini beruvchi shaxs, ushbu tarmoqdagi materiallarga kirishni ta'minlovchi shaxs – axborot vositachisi — axborot va telekommunikatsiyalar tarmog'ida shaxsiy nomulkiy huquqlarni buzganlik uchun ushbu Kodeksda nazarda tutilgan umumiy asoslarda javobgar bo'ladi.

Internet tarmog'ida ma'lumotni taqdim etuvchi axborot vositachisi ushbu faoliyat natijasida yuzaga keladigan shaxsiy nomulkiy huquqlarning buzilishi uchun quyidagi shartlarga rioya qilgan hollarda javobgar bo'lmaydi:

1) u mazkur uzatish jarayonlari tashabbuskori hisoblanmaydi va ma'lumotlarni qabul qiluvchini ko'rsatmaydi;

2) shaxsiy nomulkiy huquqlarning tegishli natijasini yoki individuallashtirish vositalarini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni yoki individuallashtirish vositalaridan foydalanish qonunga xilof ekanligini bilmagan va bilishga imkoni bo'lmagan.

Internet tarmog'iga ma'lumotlarni joylashtirish imkoniyatini ta'minlovchi axborot vositachisi uchinchi shaxs tomonidan yoki o'zining axborot-telekommunikatsiya tarmog'iga ma'lumot joylashtirilishi natijasida yuzaga kelgan shaxsiy nomulkiy huquqlarning buzilishi uchun javobgar bo'lmaydi, bosharti u quyidagi shartlarga rioya qilgan hollarda:

1) u shaxsiy nomulkiy huquqlarda mavjud bo'lgan vositalaridan foydalanish noqonuniy ekanligini bilmagan va bilishga imkoni bo'lmagan;

2) agar u shaxsiy nomulkiy huquqi egasidan Internetdagi tarmog'ida tegishli ko'rsatma olgan bo'lsa va u o'z vaqtida huquqbuzarlikni to'xtatish uchun zarur va yetarli choralarni ko'rgan bo'lsa.

Ushbu moddaga muvofiq shaxsiy nomulkiy huquqlarni buzganlik uchun javobgar bo'lmagan axborot vositachisiga ushbu Kodeksda qayd etilgan javobgarlikning umumiy qoidalarini qo'llash mumkin.

989²-modda. Ijtimoiy tarmoqlarda zarar yetkazishdan kelib chiqadigan javobgarlik

Ijtimoiy tarmoqlarda bir yoki bir necha foydalanuvchi tomonidan zararli kontentni ulashish, ma'qullash yoki tarqatish orqali boshqa bir yoki bir necha foydalanuvchiga zarar yetkazilgan taqdirda, ular shartnoma munosabatlarida bo'lgani yoki bo'lmaganidan qat'i nazar, zarar yetkazilganligi uchun javobgar shaxs jabrlanuvchiga qonunchilikda belgilangan miqdorda zararni qoplash uchun javobgar bo'ladi.

Ijtimoiy tarmoq egasi zarar keltirishi mumkin bo'lgan foydalanuvchi xatti-harakatlari yuzasidan aniq va shaffof ko'rsatmalarni belgilashi shart.

Zararli harakatlar haqida ma'lumotga ega bo'lgan ijtimoiy tarmoq ma'muriyati kontentni o'chirish, hisobni to'xtatib turish yoki profilaktika nuqtai nazaridan tegishli tashkilotlarga ko'mak berish maqsadida ehtimoliy zararlarining oldini olish yuzasidan oqilona choralar ko'rishi zarur.

Ijtimoiy tarmoq zarar ko'rgan foydalanuvchilarga zarar haqida xabar berish, uni bartaraf etish majburiyatiga yoki boshqa yordamni ko'zda tutuvchi mexanizmlarini taqdim etish vakolatiga ega.

Ushbu modda ijtimoiy tarmoqning oqilona nazorati ostida bo'lmagan omillar natijasida yuzaga kelgan zararlariga nisbatan qo'llanmaydi va unga ortiqcha majburiyatlarni yuklamaydi.”

23. O'zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi Qonuniga quyidagi mazmundagi o'zgartish va qo'shimchalar taklif qilinmoqda:

19-moddani quyidagi mazmundagi 8-qism bilan to'ldirish taklif etiladi:

“Basharti shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish ijtimoiy tarmoq tomonidan amalga oshiriladigan taqdirda, foydalanuvchilarga o'z ma'lumotlari yuzasidan to'plash, qayta ishlash va o'chirishni o'z ichiga olgan aniq vakolatlar beriladi. Ijtimoiy tarmoqlar ma'lumotlardan foydalanish va qayta ishlash haqida aniq ma'lumotlarni taqdim etishi, shuningdek, ruxsat etilmagan harakatlarni cheklash va shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlarini taqdim etishi shart.”

Ushbu qonunga quyidagi 27²-moddani kiritish taklif etiladi:

“27²-modda. Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash

Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashda har bir tarmoq aniqlik, ishonchlilik, himoyalaniish, maxfiylik, oshkoralik va ochiqlik tamoyillariga asoslangan ichki siyosatni ishlab chiqishi va unga rioya qilishi zarur.

Ushbu siyosat foydalanuvchilarning ma'lumotlarga nisbatan quyidagi huquqlarini kafolatlashi shart:

kontentdan foydalanish va uni tarqatish;
virtual tartibga solish obyektlarini boshqarish, shu jumladan, hisob ma'lumotlari, login ma'lumotlari, bildirishnomalar va afzalliklar;
tartibga soluvchi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik parametrlari;
ikki faktorli autentifikatsiya;
noto'g'ri ma'lumotlardan, shu jumladan yolg'on xabarlar, spam va firibgarliklardan himoya qilish;
aniqlangan qonunbuzarliklar haqida xabar berish mexanizmlari;
mualliflik huquqiga tegishli shaxsiy mulk huquqlarini tegishli ravishda tan olish va himoya qilish."

24. O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasini quyidagicha tahrirda bayon etish taklif qilinadi:

"7-modda. Axborotdan hamma erkin foydalanishi mumkinligi va uning haqqoniyligi

Axborot undan hamma erkin foydalanishi mumkinligi ta'minlangan va haqqoniy bo'lishi kerak.

Axborot ochiq va oshkora bo'lishi kerak, maxfiy axborot bundan mustasno.

Axborotni buzib talqin etish va soxtalashtirish taqiqlanadi.

Ijtimoiy tarmoq va undagi sahifa (kanal) egalari o'zlari tarqatayotgan axborotning haqqoniyligi uchun axborot manbai va muallifi bilan birgalikda qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Zarurat tug'ilgan hollarda har qanday ma'lumotlarning to'g'riligi tekshirilishi mumkin (fakt cheking)."

25. Zamonaviy raqamli muhitda ijtimoiy tarmoqlardagi munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish, milliy qonunchilikni o'zaro unifikatsiya qilish orqali tizimlashtirilgan **Axborot kodeksini** qabul qilinishi asoslantirildi va uning konsepsiyasi loyihasi ishlab chiqildi (~~loyiha ilova qilinadi~~).

III. Huquqni qo'llash amaliyoti va tashkiliy, o'quv-uslubiy ishlarning samaradorligini oshirishga oid takliflar:

26. Ijtimoiy tarmoqlarning traschegaraviy xususiyatini, texnologik taraqqiyotning tez sur'atlarini inobatga olgan holda, davlat aralashuvi va ijtimoiy tarmoq platformalarining o'zini o'zi boshqarishini o'z ichiga olgan muvozanatli yondashuvni yo'lga qo'yish maqsadida moslashuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan me'yoriy-huquqiy bazani joriy etish nihoyatda muhimligi haqida xulosaga kelindi. Shunga ko'ra, ijtimoiy tarmoq platformalariga "soft law", ya'ni tavsiyaviy, namunaviy xarakterdagi hujjat bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan **Ijtimoiy tarmoqlar kodeksi konsepsiyasi tadqiqot natijasi sifatida ishlab chiqildi**. Uning qabul qilinishi ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolik munosabatlarini tartibga solishda yuzaga keladigan muhim masalalar, xususan, shaxsiy daxlsizlik, tuhmat, kiberbulling va onlayn ta'qiblar, noto'g'ri ma'lumotlar va soxta yangiliklar, intellektual mulk huquqlari, algoritmik tarfakashlik va diskriminatsiya,

Отформатировано: Шрифт: (по умолчанию) Times New Roman, 14 пт, полужирный

Отформатировано: Заголовок 2, По левому краю, Отступ: Первая строка: 0 см

Отформатировано: узбекский (латиница)

Отформатировано: Шрифт: (по умолчанию) Times New Roman, 14 пт, полужирный

Отформатировано: Шрифт: полужирный

foydalanuvchi kelishuvlari va roziligining huquqiy tabiati, ijtimoiy tarmoq platformalarining javobgarligi kabi masalalarni hal qilish uchun huquqiy asos yaratishga qaratilgan.

27. Tadqiqot natijasiga ko'ra, sud amaliyotida ma'naviy zarar miqdorini aniqlashning aniq chegara va mezonlari mavjud emasligi bois ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda ma'naviy zarar yetkazish masalalarida huquq analogiyasidan kelib chiqish maqsadga muvofiq sanaladi. Bunda ma'muriy va jinoyat qonunchiligi va sud amaliyotida internet tarmog'idan foydalangan holda huquqbuzarlik sodir qilinishi og'irlashtiruvchi holat sifatida baholanishidan kelib chiqib, ijtimoiy tarmoqlar orqali ma'naviy zarar yetkazish masalalarini sudda ko'rib chiqishda ushbu qoidani qo'llash lozim.

28. O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlaridagi nizolar yuzasidan sud amaliyoti tahlil qilinib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sud amaliyotida fuqaro va tashkilotlarning sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini himoya qilish haqidagi qonunlarni qo'llash to'g'risida"gi 1992-yil 19-iyundagi 5-sonli Qarori, "Ma'naviy zararni qoplash haqidagi qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida" gi 2000-yil 28-apreldagi 7-sonli, "Sudlar tomonidan meros huquqiga oid qonunchilikni qo'llanilishi to'g'risida"gi 2011-yil 20-iyuldagi 05-sonli hamda "Sudlar tomonidan er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish haqidagi ishlarni ko'rishda qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi 2023-yil 20-fevraldagi 3-sonli Qarorlarini ijtimoiy tarmoqlarni o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqildi (qaror loyihalari ilova qilinadi).

29. Tadqiqotda foydalanuvchilarning raqamli savodxonlik va ularning ijtimoiy tarmoqlardagi huquq va majburiyatlaridan xabardorlik darajasini oshirish zarurati xususidagi masalalar tahlil qilinib, huquq va majburiyatlar, ijtimoiy tarmoqlar bilan bog'liq potentsial xavflar, sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilish, texnik kompetensiyalar (technical competencies) –maxfiylik, zararli kontent xususida xabar berish, ulashilgan ma'lumotlar (shared information) xususida xabar berish kabi sozlamalardan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarini oshirish muhim.

30. Ijtimoiy tarmoq platformalari kontent moderatsiyasining mustahkam strategiyalarini qo'llashi, soxta ma'lumotlarni aniqlash va bartaraf etish uchun sun'iy intellekt va mashinali o'rganishning mas'uliyatli hamda axloqiy usullaridan foydalanishi, shuningdek, tizimli shaffoflikni ta'minlagan holda foydalanuvchilarning media savodxonligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishi zarur.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01. ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЮРИДИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ВЫСШАЯ ШКОЛА СУДЕЙ ПРИ ВЫСШЕМ СУДЕЙСКОМ СОВЕТЕ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

САФОЕВА САДОКАТ МУСОЕВНА

**ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ГРАЖДАНСКИХ ОТНОШЕНИЙ В
СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ**

12.00.03. – Гражданское право. Предпринимательское право.
Семейное право. Международное частное право.

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора юридических наук (DSc)

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2022.2.DSc/Yu202.

Диссертация выполнена в Высшей школе судей.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.tsul.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

| | |
|-------------------------------|--|
| Научный консультант: | Гулямов Саид Саидахарович доктор юридических наук, профессор |
| Официальные оппоненты: | Синдоров Комил Ойдинович доктор юридических наук, профессор Топилдиев Вохиджон Рахимжонович доктор юридических наук, профессор Якубов Ахтам Нусратиллоевич доктор юридических наук, доцент |
| Ведущая организация: | Правоохранительная академия Республики Узбекистан |

Защита диссертации состоится 26 марта 2024 года в 14:00 на заседании Научного совета DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 при Ташкентском государственном юридическом университете (Адрес: 100047, г. Ташкент, улица Сайилгох, 35. Тел.: (99871) 233-66-36; факс: (99871) 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного юридического университета (зарегистрировано за № 1364). (Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 13. Тел.: (99871) 233-66-36).

Автореферат диссертации разослан «11» марта 2025 года.
(протокол реестра №71 от «11» марта 2025 года).

И.Р. Рустамбеков

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

Д.Ю. Хабибуллаев

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

Б.К. Ходжаев

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире влияние социальных сетей на общественную жизнь и экономику стран растет очень высокими темпами, в частности, статистические данные показывают, что в 2023 году количество пользователей социальных сетей достигло рекордного уровня – 4,9 миллиарда человек.¹ При этом экономика социальных сетей выросла со 193,52 миллиардов долларов в 2022 году до 231,1 миллиарда долларов в 2023 году, а годовой темп роста составляет 19,4 процента.² Хотя с точки зрения охвата социальные сети все глубже проникают в человеческое общество на индивидуальном уровне, об актуальности данной темы свидетельствует отсутствие четких, последовательных, единых подходов в гражданско-правовом регулировании этого пространства, недостаточное обеспечение обязательственных правоотношений, личных и неимущественных прав на основе современных потребностей и требований, а также возрастающая значимость совершенствования действующего цифрового законодательства с точки зрения прав и интересов человека в период четвертой промышленной революции.

В мире особое внимание уделяется проведению научного анализа по внедрению эффективной правовой системы в гражданско-правовом регулировании отношений в социальных сетях, в частности, установлению четких и прозрачных правил использования социальных сетей, защите персональных данных пользователей, закреплению ответственности за нарушение правил пользования социальными сетями, обеспечению наличия и достоверности информации, распространяемой в социальных сетях. В этой связи актуальным становится повышение значимости вопросов правового регулирования гражданских отношений в социальных сетях в законодательстве, определение гражданско-правового статуса новых инструментов регулирования, возникающих в связи с развитием технологических аспектов цифрового пространства, таких как использование алгоритмов, искусственного интеллекта и блокчейн-технологий, отрицающих фактор человеческого управления в условиях четвертой промышленной революции, систематизация и совершенствование нормативно-правовой базы, адаптация национального законодательства к международным стандартам, предоставление научного решения проблем, связанных с законодательными актами и правоприменительной практикой.

В нашей республике законодательную базу, регулирующую гражданско-правовые отношения, составляют более десяти законодательных актов наряду с Гражданским кодексом Республики Узбекистан, и особое внимание уделяется их приведению в соответствие с международными стандартами и современными требованиями интенсивно развивающихся гражданско-

¹ Wong, B., & Botorff, C. (2023). Top Social Media Statistics And Trends Of 2023. <https://www.forbes.com/advisor/business/social-media-statistics/>

² Social Media Global Market Report 2023. (April 2023). <https://www.reportlinker.com/market-report/E-Services/133007/Social-Network>

Код поля изменен

Код поля изменен

правовых отношений, реализуется ряд целевых мер. На сегодняшний день в Узбекистане количество интернет-пользователей превышает 31 миллион, основная их часть, то есть 29,5 миллиона, выходит в сеть через мобильные телефоны. Охват сети мобильной связи составляет 99 процентов территории республики, а широкополосного мобильного интернета – 98 процентов¹. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определен ряд направлений, непосредственно связанных с развитием гражданского законодательства – цели и задачи, такие как либерализация экономики, снижение государственного участия в регулировании экономических отношений². Приведение существующих нормативно-правовых документов в соответствие с международными нормами и принципами, укрепление их роли как сбалансированной и адаптивной нормативно-правовой базы и предложение инновационных правовых решений являются основными вопросами, рассматриваемыми в исследовании.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, установленных в Гражданском кодексе Республики Узбекистан (1995, 1996), Законах «Об информатизации» (2003), «О принципах и гарантиях свободы информации» (2002), «О гарантиях и свободе доступа к информации» (1997), «О персональных данных» (2019), «О защите прав потребителей» (1996), «О рекламе» (2022), «Об авторском праве и смежных правах» (2006), Указе Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» от 28 января 2022 года №УП-60, Концепции совершенствования гражданского законодательства Республики Узбекистан и других законодательных актах, относящихся к теме.

Связь исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики. Данная диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и способов их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информированного общества и демократического государства».

